

HINDIY TILIDA OMONIM FE'LLAR

Saidnazarova Nodira Otaxon qizi

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
Filologiya va yillarni o'qitish ta'lim yo'nalishi
saidnazarova1997@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sodiqova Mavjuda Qobulovna

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada hindiy tilidagi omonimlarning turlari haqida umumiy ma'lumot berilib, hindiy tilidagi omonim fe'llar leksik va morfologik jihatdan har tomonlama tahlil qilindi va ular o'rtasida o'xshash va farqli jihatlar yoritildi.

Kalit so'zlar: omonim, omonim fe'llar, homos, leksikologiya, muannas.

АННОТАЦИЯ

В этой статье представлен обзор типов омонимов на хинди, представлен всесторонний лексический и морфологический анализ омонимичных глаголов на хинди, а также выявлены сходства и различия между ними.

Ключевые слова: омоним, омонимичные глаголы, гомос, лексикология, муаннас.

ABSTRACT

This article provides an overview of the types of homonyms in Hindi, provides a comprehensive lexical and morphological analysis of homonymous verbs in Hindi, and highlights similarities and differences between them.

Keywords: homonym, homonymous verbs, homos, lexicology, muannas.

KIRISH

Tildagi barcha so'zlarning yig'indisiga, so'z jamg'armasiga lug'at boyligi deyiladi. Har bir tilning lug'at boyligidan munosib o'rin tutgan so'zlar doimiy ravishda bir-birlari bilan paradigmatic va sintagmatic munosabatlarda bo'lib turadi. Shunga ko'ra ularni bir necha guruhga bo'lish mumkin.

So'zlar aytilishi, yozilishi va ma'nosi jihatidan turlicha guruhlarga birlashishi qonuniy sanaladi. Shulardan biri omonimiya hodisasidir. Aytilishi va yozilishi jihatidan bir xil, ammo ma'nosiga ko'ra bir-biridan keskin farqlanib turadigan so'zlarga omonimlar deyiladi. Omonim so'zi grekcha, "homos"— bir xil, "onoma" yoki "onyma"— nom so'zlaridan olingan. So'zlardagi shakldoshlik hodisasi

omonimiyadir. Masalan: रचना – I *muannas*¹. asar, ijod, ijodkorlik (ot); रचना - II *o'timli*. ijod qilmoq, yaratmoq (fe'l). सीना - I *o'.li*. tikmoq (fe'l) ; सीना - II *m.s.* ko'krak (ot)

Omonimlardagi ikki jihat uni boshqa shakldoshlik hodisalaridan keskin farqlab turadi: 1) akustik - artikulyatsion tomondan omonim so'zlar bir xil xossaga ega bo'ladi, ya'ni talaffuzi o'xshash, deyarli bir xil bo'ladi: चटकना - I *o'.siz*. (barg) yozmoq, ochilmoq (fe'l); चटकना – II *m.r.* tarsaki, shapaloq (ot);

2) grafik jihatdan ham ular bir xil tizimga ega, masalan:

रसना – I *m.s.* til (a'zo) (ot) ; रसना – II *o'.siz*. sekin oqmoq, oqmoq, sizib oqmoq (fe'l)

Omonim turlari yuzasidan qilingan izlanishlarimiz natijasiga ko'ra, omonimlar asosan quyidagi turlarga bo'linishi aniqlandi:

1. Leksik (lug'aviy) omonimlar – so'zlar o'rtasidagi omonimlik leksik (lug'aviy) omonimlar deyiladi: आरी - I *m.s.* arra (ot) ; आरी - II charchagan, xorg'in (sifat); सोना - I *m.r.* oltin, tilla (ot) ; सोना - II *o'.li*. uxlamoq (fe'l) Ifoda planida so'zning leksema deb atalishini bilamiz. Omonimiya hodisasining tayanadigan asosiy nuqtasi ham so'zning ifoda plani, tashqi tomoni sanaladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Omonimiyada tovush va grafik ifodaning bir-biriga mutanosib kelishi muhim ahamiyatga ega. Yana shunisi muhimki, mazkur omonimlarni qaysi so'z turkumiga oid ekanligiga qarab, ot omonimlar, fe'l omonimlar, sifat omonimlar deb bo'lishimiz mumkin. Shuningdek, hindiy tilida omonimlar bir xil so'z turkumiga

(अंत - oxir (ot); अंत - yurak, qalb (ot) , ikki xil so'z turkumiga (जड़ - ildiz, asos (ot); जड़ - jonsiz (sifat) , uch xil so'z turkumiga (रोना – yig'lamoq (fe'l), रोना - yig'i (ot), रोना - yig'loqi (sifat) ham oid bo'lishi mumkin. Bir turkum doirasidagi omonimlik asosan ot va fe'llarda ko'proq uchraydi.

Agar omonimlar ikkita so'z turkumiga mansub bo'lsa, so'zlar formalarda ya'ni qo'shimcha qo'shilganda, ular o'rtasidagi shakldoshlik munosabatlari barham topadi:

रचना - asar (asar yozmoq), रचना - ijod qilmoq;

¹ Mazkur atama *m.s* (muannas), *m.r* (muzakkar) tarzida berildi. U B.R.Rahmatov, M.Q.Sodiqovanning "Hindiy tili" 1-qism (2018) kitobiga asosan olindi.

Solishtiring: ये रचनाएं - bu asarlar , वह रचता है - u ijod qiladi.

Omonimlar va ko'p ma'noli so'zlarni o'zaro farqlash zarur. Ko'p ma'noli so'zlar qancha ma'noga ega bo'lmasin, bu ma'nolar o'zaro bog'langan bo'ladi. Omonimlar boshqa - boshqa so'zlar bo'lgani uchun ularning ma'nolari o'rtasida bog'lanish bo'lmaydi. Ko'p ma'noli so'zlar o'z va ko'chma ma'nolarda qo'llanishidan hosil bo'lsa, omonimlar shakli o'xshash ikkita va undan ortiq so'zlardir.

2. Grammatik omonimlar - qo'shimchalar, so'z birikmalari yoki gaplar o'rtasidagi omonimlik sanaladi. Grammatik omonimlar ikki xil bo'ladi:

a) morfologik omonimlar – qo'shimchalar o'rtasidagi omonimlik. Masalan: - ई qo'shimchasi omonim qo'shimcha hisoblanib, u 2 xil so'z turkumini yasashi mumkin. Masalan: पहाड़ (tog') + ई = पहाड़ी (पहाड़ी आदमी) - tog'lik (tog'lik odam)

बेरोज़गार (ishsiz) + ई = बेरोज़गारी - ishsizlik kabi so'zlarda - ई qo'shimchasi ot so'z turkumini yasagan bo'lsa, धन (boylik) + ई = धनी (boy) , जंगल (o'rmon) + ई = जंगली (yovvoyi) kabi so'zlarda esa -ई qo'shimchasi sifat so'z turkumini yasagan.

- ता qo'shimchasi ham shunday:

मित्र (do'st) + ता = मित्रता (do'stlik) so'zida - ता ot yashovchi qo'shimcha, कर + ता = करता so'zida - ता fe'lning notugal sifatdoshini yasovchi qo'shimcha sanaladi.

b) sintaktik omonimlar – so'z birikmalari yoki gaplar o'rtasidagi omonimlardir:

राज भाई आया है ? (bu gapda राज ega vazifasida kelgan)

राज, भाई आया है ? (bu gapda esa राज undalma vazifasida ishlatilgan). Ushbu gaplarda ma'noni faqat ohangdan farqlab olish mumkin.

3. Frazologik omonimlar – iboralar, ya'ni ko'chma ma'noli , ta'sirchanlikka ega bo'lgan birikmalar o'rtasidagi omonimlikdir:

अच्छे रहना - I sog' bo'lmoq, sog'lig'i yaxshi bo'lmoq; II muvaffaqiyatga erishmoq, foyda ko'rmoq;

अखज करना - I tanlamoq, qabul qilmoq; II Gapdan qolmaslik;

इधर उधर को हाँकना - I Yolg'ondan maqtanmoq; II U yoq bu yoqdan gaplashmoq (bitta mavzuda gaplashmaslik)

अख्तियार करना - I qabul qilmoq; II yoqtirmoq; III ishga olmoq

Omonim fe'llar yuzasidan olib borilgan izlanishlarimiz natijasida, hindiy tilida omonim fe'llarning omonim ma'nolari bir xil so'z turkumi doirasida yoki har xil so'z turkumi doirasida bo'lishi kuzatildi. Omonim fe'llarning bir ma'nosi fe'l so'z turkumiga va ikkinchi ma'nosi esa ot yoki sifat so'z turkumiga mansub misollar ko'pchilikni tashkil qildi. Bunda bir ma'nosi otga mansub fe'llar ko'proq, sifatga mansublari nisbatan kamchilik ekanligi aniqlandi. Masalan:

घटना - I *o'.siz.* sodir bo'lmoq, ro'y bermoq, amalga oshirmoq; bo'lib o'tmoq; joyida bo'lmoq – *fe'l so'z turkumiga mansub* ; II *o'.siz.* qisqarmoq, kamaymoq, pasaytirmoq, pasaymoq (narx) – *fe'l so'z turkumiga mansub* III *m.s.* voqea, hodisa, holat – *ot so'z turkumiga mansub* Masalan: असहमति के कारण अक्सर बुरी चीजें घटती हैं । - Kelishmovchiliklar sababli ko'pincha yomon ishlar sodir bo'ladi. पिछले साल वेतन काफ़ी घटी थी । - O'tgan yili oyliklar ancha qisqargan edi.

इस घटना ने उन्हें बुरी तरह प्रभावित किया । - Bu voqea ularga yomon ta'sir qildi.

ताना – I *m.r.* ta'na, malomat; tanbeh, gina – *ot so'z turkumiga mansub*; II *o'.li.* eritmoq – *fe'l so'z turkumiga mansub*; Masalan:

वह हमेशा अपनी गलतियों के लिए ताना सुनता है । - U har doim xatolari uchun ta'na eshitadi.

लोहार लोहे को ताकर तरह-तरह की चीज़े बनाता है । - Temirchi temirni eritib turli xil narsalar yasaydi.

मस्ताना – I *mast*; *mastday*, *mastlardek* – *sifat so'z turkumiga mansub*; II *o'.siz.* *mast bo'lmoq* – *fe'l so'z turkumiga mansub* Masalan: वह प्यार से मस्ताना था । - U sevgidan *mast* edi.

वह मस्ताया था क्योंकि उसने बहुत पी लिया था। - U ko'p ichib yuborgani sababli, *mast bo'lgandi*.

Omonim fe'llarni morfologik tahlil qilish jarayonida yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ayrim omonim fe'llarning omonimlik ma'nolaridan biri boshqa so'z turkumiga ham mansub bo'lib, bu omonim fe'llarning bir-biridan farqlanishi, shakllari, gaplarda qo'llanilishi va gapdagi vazifalari ham turlicha ekan.

Hindiy tilida omonim fe'llarni grammatik tahlil qilish jarayonida esa fe'llar o'timli, o'timsizligi bo'yicha o'rganildi va shu narsa ma'lum bo'ldiki, omonim fe'llarni fe'llik ma'nosiga ko'ra quyidagi 3 turga ajratish mumkin:

1. Ikkala omonimlik ma'nosi ham o'timli fe'llar.
2. Ikkala omonimlik ma'nosi ham o'timsiz fe'llar.
3. Aralash ya'ni bir ma'nosi o'timli, boshqasi o'timsiz bo'lgan fe'llar.

Endi ushbu natija bo'yicha, ayrim misollarni ko'rib chiqamiz :

1. Ikkala omonimlik ma'nosi ham o'timli fe'llar:

उतारना - I *o'.li.* yechmoq; bo'shatmoq, tushirmoq; II *o'.li.* o'tkazib qo'yimoq (narigi qirg'oqqa) Masalan:

बच्चे ने स्नान करने के लिए अपने कपड़े उतारे। - Bola cho'milish uchun kiyimlarini yechdi.

उस ने नाव में सवार सभी यात्रियों को समुद्र तट के दूसरी ओर उतारा। - U qayiqdagi barcha yo'lovchilarni (sayohatchilarni) dengiz sohilining narigi tomoniga o'tkazib qo'ydi.

चीतना - I *o'.li.* chizmoq; II *o'.li.* o'ylamoq, fikr yuritmoq; esga olmoq, eslamoq. Masalan:

उन्होंने अपनी सबसे प्रसिद्ध चित्र दो साल तक चीता। - U o'zining eng mashhur rasmini ikki yil davomida chizgan.

इस समस्या के समाधान के बारे में माँ ने बहुत देर तक चीता। - Ona bu muammoning yechimlari to'g'risida uzoq vaqt o'yladi.

पुजाना - I *o'.li.* hurmat qozonmoq, hurmatga sazovor bo'lmoq. II *o'.li.* davolamoq (jarohatni); Masalan:

प्रेमचंद ने अपने अमूल्य रचनाओं से लोगों के बीच आदर पुजाया था। - Premchand o'zining bebaho ijodi bilan xalq orasida hurmat qozongan.

प्राचीन काल में चिकित्सकों ने कई घावों को जड़ी-बूटियों से पुजाया था। - Qadimda tabiblar giyohlar bilan ko'plab jarohatlarni davolashgan.

2. Ikkala omonimlik ma'nosi ham o'timsiz fe'llar :

उझकना - I *o'.siz.* qaramoq, kuzatmoq; II *o'.siz.* sakramoq. Masalan:

राम बहुत देर तक लोगों को उझका। - Ram uzoq vaqt odamlarni kuzatdi.

श्याम दीवार के पीछे देखने के लिए दीवार से उड़का। - Shyam devor ortini ko'rish uchun devordan sakradi.

चसना - I *o'.siz.* yopishmoq; II *o'.siz.* o'lmoq, vafot etmoq. Masalan:

आज रमेश ने देखा कि कल की परीक्षा की घोषणा दीवार पर चसी थी। - Bugun Ramesh kechagi imtixon haqidagi e'lon devorga yopishganini ko'rdi.

पिछले साल कोविड के कारण दुनिया भर में कई लोग चसे। - O'tgan yili Covid sababli butun dunyoda ko'plab odamlar vafot etishdi.

छकना - I *o'.siz.* to'ymoq, to'yib yemoq; II *o'.siz.* hayron qolmoq, hayratlanmoq; hayratda qolmoq. Masalan:

इतना खाना खाकर आखिरकार सुरेश छका। - Shuncha ovqatni yeb nihoyat Suresh to'ydi.

कारीगर के कुशल को देखकर, सभी दर्शक छका था। - Hunarmandning mahoratini ko'rib, barcha tomoshabinlar hayratda qolishgan edi.

3. Aralash ya'ni bir ma'nosi o'timli, boshqasi o'timsiz bo'lgan fe'llar :

कमाना - I *o'.siz.* ishlamoq; II *o'.li* pasaytirmoq, kamaytirmoq. Masalan :

श्याम पिछले महीने में दलाली करके हजारों रुपयों कमाया था। - Shyam o'tgan oyda dallollik qilib, minglab rupiyalar ishladi.

सरकार ने पिछले महीने बाजार में कीमतों काफी कमायी थी। - Hukumat o'tgan oy bozorda narxlarni ancha pasaytirgan edi.

कूकना - I *o'.siz.* sayramoq, kuylamoq (qush), chirillamoq, kukulamoq; II *o'.li.* yurgizmoq (soat). Masalan:

रानी के दुःख के कारण बगीचे में पक्षी भी उदास कूके। - Malikaning qayg'usi sababli bog'dagi qushlar ham g'amgin sayrashardi.

घड़ीसाज़ ने घड़ी की मरम्मत की और उस ने उस को फिर कूका। - Soatsoz soatni ta'mirladi va uni qayta yurgizdi.

ठठाना - I *o'.li.* urmoq, do'pposlamoq; II *o'.siz.* qah - qah urib kulmoq, xoxolamoq, kulmoq. Masalan:

सूरन ने चोर को बहुत बुरी तरह ठठाय। - Suran o'g'rini juda yomon urdi.

नाटक देखकर सभी दर्शक ठठाये। - Spektaklni ko'rib hamma tomoshabinlar qah-qah otib kulishdi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida, omonimlar aytilishi va yozilishi jihatidan bir xil, ammo ma'nosiga ko'ra bir - biridan keskin farqlanib turadigan so'zlar bo'lib, ularning quyidagicha turlari mavjudligi aniqlandi :

1. Leksik (lug'aviy) omonimlar – so'zlar o'rtasidagi omonimlik.
2. Grammatik omonimlar esa qo'shimchalardagi shakldoshlik sanaladi.
3. Frazologik omonimlar – iboralar, ya'ni ko'chma ma'noli , ta'sirchanlikka ega bo'lgan birikmalar o'rtasidagi omonimlikdir.

Hindiy tilida omonim fe'llarni esa ifodalanishi va tahlili yuzasidan quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Omonim fe'llarni morfologik tahlil qilar ekanmiz, ularni bir ma'nosi fe'l bo'lgan va ikkinchi ma'nosi fe'ldan boshqa so'z turkumi bo'lgan omonim fe'llarga ajratish mumkin.

2. Hindiy tilida omonim fe'llarni grammatik tahlil qilish jarayonida esa fe'llar o'timli, o'timsizligi bo'yicha o'rganilganda, shu narsa ma'lum bo'ldiki, omonim fe'llarni quyidagi 3 turga ajratish mumkin:

- 1) ikkala omonimlik ma'nosi ham o'timli fe'llar.
- 2) ikkala omonimlik ma'nosi ham o'timsiz fe'llar.
- 3) aralash ya'ni bir ma'nosi o'timli, boshqasi o'timsiz bo'lgan fe'llar.

Demak, har bir omonim fe'llarning bir-biridan farqlanishi, o'ziga xos xususiyatlari va shakllari, gaplarda qo'llanilishi hamda gapdagi vazifalari ham turlichadir.

REFERENCES

1. Rahmatov B.R., Sodiqova M.Q., Nurmatov S.S, Sulemanova M.M. Hindiy tili 1-qism. Toshkent. 2018
2. Abdurahmonov G'. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. O'zbekiston. 2010. 110-118 bet.
3. Гуру К. Грамматика хинди. Часть II. Пер. С хинди Г.А. и Р.И.Баранниковых. Под ред. И с предисл. Проф. Б.А.Ларина. -М.: Изд-во иностранной лит-ры, 1962.
4. Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.: Наука, 1986.

5. डॉ० भोलानाथ तिवारी. हिंदी मुहावरां कोश [Dictionary of hindi idioms] नई दिल्ली 1991. प. 20-40.
6. Бескровный В.М. «Хинди – русский словарь». Москва, 1959.
Internet saytlari :
 1. <https://rekhtadictionary.com>
 2. <https://www.sbistudy.com/homonyms-in-hindi/>